

**TOSHKENT KIMYO TEXNOLOGIYA ILMIY TADQIQOT  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
DSc.16/30.12.2019.K/T.87.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT KIMYO TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**DAVRONOVA NORNISO FAXRIDDIN QIZI**

**ATROF MUHIT OBYEKTLARIDAN TEMIR VA KOBALT  
IONLARINI IMMOBILLANGAN AZOT- VA KISLOROD SAQLAGAN  
ORGANIK REAGENTLAR YORDAMIDA SORBSION-SPEKTROSKOPIK  
ANIQLASH VA AJRATISH USULLARINI ISHLAB CHIQISH**

**11.00.05-Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish**

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Contents dissertation abstract of doctor philosophy (PhD)**

**Davronova Norniso Faxriddin qizi**

Atrof-muhit obyektlaridan temir va kobalt ionlarini immobillangan azot- va kislород saqlagan organik reagentlar yordamida sorbsion-spektroskopik aniqlash va ajratish usullarini ishlab chiqish..... 3

**Давронова Норнисо Фахриддин кизи**

Разработка сорбционно-спектроскопических методов определения и разделения ионов железа и кобальта азот- и кислород содержащими иммобилизованными органическими реагентами в объектах окружающей среды..... 21

**Davronova Norniso Fakhriddin qizi**

Development of sorption-spectroscopic methods for the determination and separation of iron and cobalt ions from environmental objects using immobilized organic reagents containing nitrogen and oxygen..... 41

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 44

**TOSHKENT KIMYO TEXNOLOGIYA ILMIY TADQIQOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
DSc.16/30.12.2019.K/T.87.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT KIMYO TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**DAVRONOVA NORNISO FAXRIDDIN QIZI**

**ATROF MUHIT OBYEKTLARIDAN TEMIR VA KOBALT IONLARINI  
IMMOBILLANGAN AZOT- VA KISLOROD SAQLAGAN ORGANIK  
REAGENTLAR YORDAMIDA SORBSION-SPEKTROSKOPIK  
ANIQLASH VA AJRATISH USULLARINI ISHLAB CHIQISH**

**11.00.05-Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/K906 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent kimyo texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) (резюме) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tktiti.uz](http://www.tktiti.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Smanova Zulayxo Asanaliyevna**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Muxamedgaliyev Baxtiyor Abdukadirovich**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Aliyeva Muqaddas Tuychiyevna**  
kimyo fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Umumiy va noorganik kimyo instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent kimyo texnologiya ilmiy tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.16/30.12.2019.K/T.87.01. raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «24» avgust soat 09:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111116, Toshkent tumani, Ibrat MFY p/b Shurobozor. Tel.:(+99895) 281-67-83, e-mail: [ooo-tniixt@mail.ru](mailto:ooo-tniixt@mail.ru)).

Dissertatsiya bilan Toshkent kimyo texnologiya ilmiy-tadqiqot institutining Axborot – resurs markazida tanishish mumkin. (№ 2025/24 raqami bilan ro'yxatga olingan. ((Manzil: 111116, Toshkent tumani, Ibrat MFY p/b Shurobozor. Tel.:(+99895) 281-67-83, e-mail: [ooo-tniixt@mail.ru](mailto:ooo-tniixt@mail.ru) [TKTITI@exat.uz](mailto:TKTITI@exat.uz))

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «09» avgust kuni tarqatildi.  
(2025yil « 09» avgustdagi № 2025/24 raqamli reyestr bayonnomasi)



*[Handwritten signature]*

**Djalilov A.T.**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi,  
k.f.d., prof., akademik

*[Handwritten signature]*

**Qiyomov Sh.N.**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
t.f.d. k.a.x.

*[Handwritten signature]*

**Beknazarov H.S.**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash qoshidagi  
Ilmiy seminar raisi, t.f.d. prof.

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda, soʻnggi yillarda sanoatning barcha yoʻnalishlarida intensiv rivojlanish va zamonaviy texnogen jarayonlarning amaliyotga keng joriy etilishi natijasida atrof - muhitga antropogen omillar orqali boʻlayotgan salbiy taʼsir kuchayib bormoqda. Shu sababli, ekologik tahlil doirasida temir va kobalt ionlarini nafaqat aniqlash, balki atrof - muhit obyektlaridan selektiv ravishda ajratish imkonini beruvchi yuqori sezgirlikka ega, qayta takrorlanuvchan zamonaviy usullarni ishlab chiqishga katta eʼtibor qaratilmoqda.

Jahonda ogʻir va zaharli metallarni aniqlash va ajratish uchun ultramikro miqdorlarini tahlil qilish imkonini beradigan bir qator fizik va fizik - kimyoviy usullar yaratish ustida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada ogʻir va zaharli metallarni belgilangan ruxsat etilgan chegaralardan past konsentratsiyalarda bir vaqtning oʻzida aniqlash va ajratish imkonini beruvchi zamonaviy usullarning sezgirligi hamda selektivligini oshirish mexanizmlarini chuqur oʻrganish, ayniqsa, organik reagentlarni tolali tashuvchilarda immobilizatsiya qilish usulidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda ogʻir va zaharli metallarni aniqlashning sorbsion-spektroskopik usullarini rivojlantirish bilan birga atrof - muhitning ifloslanish darajasining ortishi bilan monitoringni takomillashtirish va soddalashtirish boʻyicha aniq ilmiy va amaliy natijalarga erishilmoqda. Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasida «Iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalarini va ilm - fan muassasalarining hamkorlik aloqalarini rivojlantirish»<sup>1</sup> vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, atrof-muhitni monitoring qilishda mahalliy xomashyolardan asosida olingan tolasimon tashuvchilarga immobilangan organik reagentlardan foydalanish, moddalarning sifatini va tozalik darajasini tizimli nazorat qilishni yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktabrdagi PF-5863-son «2030-yilgacha boʻlgan davrda Oʻzbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida»gi farmoni, 2018 yil 3 oktyabrdagi PQ - 3956-sonli «Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida» qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 18 fevraldagi VM-95-son «Ekologik xavfsizlik toʻgʻrisidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida» qarori, 2022 yil 16 fevraldagi PQ-131-son «Oʻzbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qoʻmitasi tizimida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi qarorlari hamda ushbu sohada qabul qilingan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi.** Mazkur ilmiy tadqiqot ishi Respublika fan va

<sup>1</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida” farmoni.

texnologiyalar rivojlanishining VII. «Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalar» ustuvor yoʻnalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning oʻrganilganlik darajasi.** Imbobilangan organik reagentlardan foydalanishga asoslangan, yangi yondashuvlardan biri boʻlgan qattiq fazali - spektroskopik usullar sezgirlik va ishonchlilikka qoʻyiladigan talablarga javob beradi va bu yoʻnalishda koʻplab xorijiy olimlar G. Alberti, A. Sayqal, T. Sun, J. Lin, R. Sun, Yu. A. Zolotov, G.D. Brikina, N.A. Gavrilenko, V.N. Locev, V.G. Amelin, Ye.I. Morocanova, C.G. Dmitriyenkolar, respublikamizda esa A.M. Gevorgyan, M.A. Nasimov, A.T.Djalilov, X.L. Pulatov, R.X. Djiyanbayeva, B.D. Kabulov, I.P. Shesterov, Z.A. Smanova va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Ushbu tadqiqotlarda turli silikagellar, tabiiy seolitlar, PE plyonkalar, sellyuloza nitrati, polikaproamidli gel membranalar va modifikatsiyalangan kremnezemlar kabi tashuvchi qatlamlardan foydalanadigan spektroskopik va fluoressent usullar ishlab chiqilgan va qoʻllanish sohalarini kengaytirish va texnologiyalarini takomillashtirish tavsiya etilgan. Hozirda mahalliy xomashyolar va sanoat chiqindilari asosida zaharli erituvchilar talab qilmaydigan, ekologik jihatdan xavfsiz boʻlgan qattiq fazali spektroskopiyada usuli orqali bir vaqtning oʻzida ogʻir va zaharli metall ionlarini aniqlash, ajratish va monitoringini oʻtkazish imkonini beruvchi zamonaviy usullarni yaratish va amaliyotda qoʻllash boʻyicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent kimyo texnologiya instituti hamda Oʻzbekiston Milliy universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FZ-20171024243 raqamli «Kobalt va temir ionlarini aniqlashda imbobilangan azoreagentlarning fizik-kimyoviy xossalari tadqiq etish» mavzusidagi (2018 - 2019 yy) fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** - Qoʻngʻirot tumani va Navoiy viloyati oqova suvlari tarkibidan temir va kobalt ionlarini metrologik parametrlarini imbobilangan azot- va kislorod saqlagan organik reagentlar yordamida sorbsion-spektroskopik aniqlash va ajratish usulini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

temir (III) va kobalt (II) ionlarini aniqlash va ajratishda selektiv organik reagentlarni tanlash azot- va kislorod saqlagan organik reagentlarni polimer sorbentlarga imbobilashning optimal sharoitlarini aniqlash;

temir (III) va kobalt (II) ionlarini imbobilangan azot- va kislorod saqlagan organik reagentlar bilan kompleks hosil qilish sharoitlarini hamda ularning hosil boʻlish mexanizmi va tarkibini aniqlash;

temir (III) va kobalt (II) ionlarini sorbsion-spektroskopik aniqlash va ajratish usulini ishlab chiqish va usulning aniqliligini baholash;

ishlab chiqilgan sorbsion-spektroskopik usulning atrof-muhit obyektlaridagi qoʻllanishi hamda Qoʻngʻirot tumani suv havzalari va Navoiy viloyati sanoat oqova suvlari hamda Zarafshon daryosi suvlaridagi temir (III) va kobalt (II) ionlarini miqdorini monitoringini oʻtkazish;

temir (III) va kobalt (II) ionlarini aniqlash va ajratishda ishlab chiqilgan sorbsion-spektroskopik usulni amaliyotga joriy qilish sohasini va ularning atrof-muhit obyektlariga ta'sirini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Fe (III) va Co (II) kationlarini o'z ichiga olgan sun'iy aralashmalar, atrof-muhit obyektlari (Navoiy viloyati sanoat chiqindi suvlari, Oltin ko'l kanali suvlari hamda Zarafshon daryosi suvlari va texnogen suvlar) olingan.

**Tadqiqotning predmeti** polimer matritsada immobillangan metil timol ko'ki va nitrozo R- tuzi organik reagentlar yordamida atrof-muhit obyektlaridan temir(III) va kobalt(II) ionlarining metrologik parametrlarini sorbsion-spektroskopik aniqlash va ajratish usullarini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiya ishida immobillangan organik reagentlar yordamida sorbsion-spektroskopik aniqlash usullari, olingan kompleks birikmani tarkibini, xossa va xususiyatlarini o'rganishda IQ-spektroskopiya, skanerlovchi elektron mikroskop (SEM), rentgenofluoressent tahlili, nur qaytarish va nur yutish spektroskopiyasi, shuningdek eksperimental ma'lumotlarni matematik statistik qayta ishlash hamda kvant kimyoviy hisoblash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor Fe(III) va Co(II) ionlarini aniqlash va ajartish uchun poliakrilonitril asosidagi PPA-1 sorbentiga immobillangan metil timol ko'ki va nitrozo R- tuzi organik reagentlari qo'llanilgan hamda immobillashning optimal sharoitlari aniqlangan;

Fe(III) va Co(II) ionlarini immobillangan metil timol ko'ki hamda nitrozo R- tuzi ishtirokida barqaror kompleks birikmalar hosil bo'lishining optimal sharoitlari, tarkibi va tuzulishi turli fizik-kimyoviy usullar, kvant kimyoviy hisoblashlar yordamida aniqlangan va ularning metrologik parametrlari topilgan;

ekologik obyektlar, jumladan turli oqova va chiqindi suv namunalarida immobillangan metil timol ko'ki va nitrozo R- tuzi organik reagentlari yordamida Fe(III) va Co(II) ionlarini sorbsion-spektroskopik aniqlash va ajratishning yangi usullari ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan sorbsion-spektroskopik usul asosida atrof-muhitni muhofaza qilishda Fe(III) va Co(II) ionlarini oqova va chiqindilar suvlaridagi mikro miqdorining ekologik monitoringini samarali amalga oshirish imkoniyati aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

turli murakkab aralashmalar tarkibidagi temir (III) va kobalt (II) ionlarini aniqlash va ajartish uchun sezgir, ekspress, iqtisodiy jihatdan arzon, tanlab ta'sir etuvchi sorbsion-spektroskopik usul ishlab chiqilgan;

PPA-1 sorbentiga immobillangan metil timol ko'ki va nitrozo R-tuzi organik reagentlari yordamida temir (III) va kobalt (II) ionlariga kompleks hosil qilish uchun maqbul sharoitlari aniqlangan;

immobillangan metil timol ko'ki va nitrozo R- tuzi yordamida atrof-muhit obyektlarida temir va kobalt ionlarini mikro miqdorini aniqlash va ajratish uchun metrologik tavsiflari yaxshilangan usullari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** olingan moddalarning struktura va xossalari fizik-kimyoviy tahlilning zamonaviy IQ-spektroskopiya, SEM, rengenofluoresent tadqiqot usullari yordamida aniqlanganligi, eksperimental va nazariy natijalarning o‘zaro mosligi, natijalarning ishlab chiqarish sharoitlarida tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kompleks birikma hosil qiluvchi metil timol ko‘ki va nitrozo R- tuzi organik reagentlarini polimer tolaga (PPA-1) immobillash natijasida yangi sorbsion sistemalar olinganligi, ushbu sistemalarda temir (III) va kobalt (II) ionlarining immobillangan organik reagentlar bilan kompleks birikmalar hosil qilishining optimal sharoitlari, sorbsiya jarayonida hosil bo‘ladigan metalloxelatlarining tuzilishi aniqlanganligi hamda sorbsion-spektroskopik aniqlash usullari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati oqova va chiqindi suvlardan temir(III) va kobalt(II) ionlarini aniqlash hamda ajratishning sorbsion-spektroskopik usullaridan foydalanish, zaharli metallarni aniqlash va ajratishning tezkor usullarini ishlab chiqish orqali atrof-muhit ifloslanishining oldini olish, ekologik iqlimni sog‘lomlashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirish, shuningdek, atrof-muhitning ifloslantiruvchi moddalari va potensial ekotoksikantlari sifatida toksik metallarni aniqlash va ajratish tezkorligini keskin oshirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi.** Atrof-muhit ob‘yektlaridan temir va kobalt ionlarini immobillangan azot- va kislorod saqlagan organik reagentlar yordamida sorbsion-spektroskopik aniqlash va ajratish usulini ishlab chiqish bo‘yicha olingan ilmiy natijalari asosida:

temir (III) va kobalt (II) ionlarini sorbsion-spektroskopik aniqlash usuli «Navoiyazot» AJ da amaliyotga joriy etilgan («Navoiyazot» AJ ning 2025 yil 21 fevraldagi 03-3/1437-son ma’lumotnomasi). Natijada, Navoiy viloyati hududidagi oqava suvlarini davlat monitoringini yuritish, suvlarni og‘ir metallar (kobalt (II) va temir (III) ionlari) bilan ifloslanganligini baholash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqish imkonini bergan;

immobillangan metil timol ko‘ki va nitrozo R- tuzi organik reagentlar yordamida temir va kobalt ionlarini ajratish usuli «Navoiyazot» AJ da amaliyotga joriy etilgan («Navoiyazot» AJ ning 2025 yil 21 fevraldagi 03-3/1437-son ma’lumotnomasi). Natijada, sanoat chiqindi suvlarida va oqava suvlarda temir (III) va kobalt (II) ionlarini tezkor ajratish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari asosida 8 ta, shundan, 6 ta xalqaro va 2 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarida 7 ta, jumladan 4ta maqola Respublikada va 3 ta ilmiy maqola xalqaro jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiyaning tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 117 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya ishning dolzarbligi, tadqiqot maqsadi va vazifalari belgilangan, tadqiqotning obyekt va predmetlari aniqlangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyasi taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mos kelishi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari keltirilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, erishilgan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini joriy qilish qilinganligi, nashr etilgan ishlar ro'yxati va dissertatsiya tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Temir va kobalt ionlarini ekologik omil sifatida inson organizmiga va atrof-muhitga ta'siri (adabiyotlar sharhi)**» deb nomlangan **birinchi bobida** temir (III) va kobalt (II) ionlarining atrof-muhitga tarqalish manbalari, ularning o'simlik, hayvon va inson organizmiga toksik ta'siri, oqava suvlardagi og'ir metall ionlarini aniqlashning zamonaviy usullari, shuningdek temir va kobalt ionlarini aniqlashning fizik-kimyoviy usullari, sorbsion konsentrlash va spektrofotometrik usullarida hamda immobillanish turlari haqidagi tadqiqotlar sharhi keltirilgan.

Ma'lumotlar umumlashtirilgan va ilmiy-tahliliy xulosalar chiqarilgan hamda ilmiy adabiyotlardagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda dissertatsiya ishining maqsadi, vazifalari, mavzuning dolzarbligi va muhimligi asoslangan.

Dissertatsiyaning «**Temir (III) va kobalt (II) ionlarini aniqlash va ajratishda ishlatiladigan asbob-uskunalar, materiallar, reaktivlar eritmalar va reagentlarni tayyorlash usullari**» deb nomlangan **ikkinchi bobida** tadqiqotda qo'llanilgan asbob-uskunalar, jihozlar, reaktivlar, temir(III) va kobalt (II) ionlarining standart va ishchi eritmalarini analizga tayyorlash metodikasi, organik reagentlar va ularni qattiq tolali sorbentlarga immobillash metodikasi keltirilgan. Shuningdek immobillash jarayonida qo'llanilgan metil timol ko'ki (MTK) va nitrozo R- tuzi (NRT) reagentlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Ilmiy tadqiqot ishida O'zbekiston Milliy universiteti «Polimerlar kimyosi» kafedrasida sintez qilingan PPA-1 tolasiga organik reagentlarni immobillanishining fizik - kimyoviy xossalari o'rganildi (1-jadval).


### 1 - jadval

#### Metil timol ko'ki va nitrozo R- tuzi reagentlarini immobillashining optimal sharoitlari ( $m_H = 0,2000$ g )

Reagent	Tashuvchi	pH	Bufer aralashma hajmi, ml	Yutilish maksimumi, nm	Vaqt,min
MTK	PPA-1	6-7	10	436	5-7
NRT	PPA-1	6-7	10	368	5-7

Dissertatsiyaning «**Organik reagentlarni tashuvchilarga immobillash va ular bilan temir(III) va kobalt (II) ionlarining kompleks hosil qilish**

**jarayonlari uchun optimal sharoitlarni tanlash» nomli uchinchi bobida** MTK va NRT reagentlarni zamonaviy tadqiqot usullari yordamida tahlil qilish va tarkib tuzilish xususiyatlarini Gaussian09 dasturiy paketi (DFT/B3LYP metodi doirasida) kvant-kimyoviy hisoblash natijalari, MTK va NRT reagentlarining immobillanish uchun maqbul sorbent va optimal sharoitlar tanlash shuningdek temir (III) va kobalt (II) ionlari bilan immobillangan organik reagentlarning kompleks hosil qilish to‘lqin uzunligi, vaqt, temperatura, reagent konsentratsiyasiga bog‘liqligi va eritma muhiti hamda qulay bufer eritmaları kabi analitik mezonlari aniqlangan. Sidjvik qoidasiga ko‘ra kobalt metalining kislorod bilan hosil qilgan bog‘i azot atomi bilan hosil qilgan bog‘iga nisbatan kuchsizroq. Bundan xulosa qilgan holda tarkibida azot turgan organik reagentlar bilan kobalt ionining barqaror kompleks hosil qilish ehtimoli yuqori ekanligini hisobga olgan holda 1-nitrozo-2-naftol-3,6-disulfonik kislota natriyli tuzi (nitrozo R- tuzi) reagentini, temir ion uchun esa kislorod bilan bog‘i azot bog‘iga nisbatan mustahkamroq bo‘lishini hisobga olgan holda metil timol ko‘ki reagenti tanlangan. Reagentlarning tanlangan polimer tashuvchiga va metall ionlariga aynan qaysi mexanizmlar bo‘yicha kompleks birikma hosil qilishi va immobillanish jarayonlarini oladindan prognozlash maqsadida kvant-kimyoviy hisoblashlar olib borilgan. Bu usullardan foydalangan holda, kislotali muhitda reagentlarning protonlanishi natijasida elektron juftning elektrostatik tortilishi hisobiga kordinatsion bog‘ hosil bo‘ladi. Immobillash uchun tanlangan reagentlar bir nechta potensial markazlar tutgan bo‘ladi, ular metall ionlariga yuqori elektrostatik tortishishga ega.




**1 - rasm. Nitrozo R- tuzi zaryad taqsimoti (a) va eslektrostatik potentsiali (b)**

Ma‘lumki, reagent tarkibidagi sulfo ( $\text{SO}_3$ ) guruhning elektron bulut zichligining ko‘rsatkichi eng yuqoriligi, tola bilan immobillash jarayoni aynan shu sohada yuzaga kelishini bildiradi. Keyingi qiymatlar ko‘rsatkichi esa  $=\text{CH-N}=\text{C}-\text{O}-$  bog‘lariga tegishli bo‘lib, metall bilan kordinatsion bog‘ hosil qilishi aniqlandi.

Reagentning elektrostatik potentsiali (ESP) molekulyar modellashtirishda molekularning hatti-harakatlarini va ularning boshqa molekular bilan o‘zaro ta‘sirini tushunish hamda prognoz qilish uchun foydalaniladi. Shuningdek, ESP reaksiyon markazlarni aniqlashda muhim ko‘rsatkich bo‘lib, molekuladagi nukleofil va elektrofil markazlarni ko‘rsatadi. Qizil sferik nuqtalar elektronga boy soha

bo'lib, yuzaning minimum sohasi hisoblanadi. Havorang sferik nuqtalar elektron taqchil sohalar bo'lib, sathning maksimum sohasi hisoblanadi. Molekulalararo ta'sirlashuvda elektrono-donor sifatida qatnashishi mumkin bo'lgan markazlar sifatida molekulaning sulfo guruhidagi kislorod atomini ko'rsatish mumkin. Tahlili natijalari asosida ushbu birikmaning polimer birikmalarga birikishi eng faol vorodorod atomini tutgan - SO<sub>3</sub> guruhi bilan borishi mumkinligini ko'rsatadi.

Metil timol ko'ki va nitrozo R- tuzi reagentlarini immobillash uchun O'z. Mu. "Polimerlar kimyosi" kafedrasida sintez qilingan turli sun'iy tolasimon sorbentlardan foydalanildi.




a )

b )

**2 - rasm. Turli tolasimon sorbentlar bilan immobillanishning Kubelka-Munka funksiyasida hisoblash natijalari : a) MTK; b) NRT**

Tanlab olingan reagentlarga eng yaxshi sorbent tanlash jarayonida ikkala MTK va nitrozo R-tuzi organik reagentlarga PPA-1 tolasimon sorbenti eng yuqori analitik signalni berdi. Shu munosabat bilan MTK va nitrozo R-tuzi reagentlarni immobillash uchun PPA-1 tolasi tanlab olindi.



a )

b )


**3 - rasm. Maksimal nur yutish spektrlari a ) 1. MTK ( $\lambda_{max}=436nm$ ) va 2. Fe<sup>3+</sup> ioni bilan hosil qilgan kompleksi ( $\lambda_{max}=615 nm$ ); b) nur qaytarish spektrlarining Kubelka-Munka funksiyasida hisoblash natijalari 1. PPA-1 2. Immobillangan MTK; 3. Kompleks Fe<sup>3+</sup>.**

Immobillangan MTK bilan temir (III) ionlari orasidagi kompleks birikmaning nur qaytarish va nur yutish spektrlari olindi. Ikkala holatda ham kompleks birikmamiz 615 nm to'liq uzunligida MTK reagentimiz 436 nm to'liq uzunligida


maksimal qiymatni berdi. Kompleks va reagent o'rtasidagi kontraslik 179 nm ekanligi aniqlandi. Bu esa immobillangan MTK dan temir ionini aniqlash uchun analitik reagent sifatida ishlatishimiz mumkinligini bildiradi. Natijalarni to'g'riligini isbotlash maqsadida olingan nur yutilish spektrini nur qaytarish spektrlari bilan solishtirildi. Nur yutilishidagi maksimum nur qaytarish spektrida minimum bo'lib kuzatiladi. Nur qaytarish spektri natijalarini Kubelka-Munka funksiyasiga o'tkazilganda minimum maksimumga aylanadi va nur yutilish spektrini maksimum sohasi bilan bir xil bo'lib kuzatilishi aniqlandi.

Immobillangan nitrozo R- tuzi bilan kobalt (II) ion kompleks eritmasining maksimal nur qaytarishi 520 nm to'liq uzunligida kuzatildi. Kobaltni to'g'ridan to'g'ri nitrozo R-tuzi bilan aniqlaganimizda hosil bo'lgan kompleksni maksimal to'liq uzunligi 419 nmni tashkil etdi. Bunda kompleks va reagent o'rtasida kontraslik 51 nmni tashkil etadi. NRT reagentini PPA-1 tolasiga immobillab keyin kobalt (II) ionini aniqlasak hosil bo'lgan kompleks 520 nm to'liq uzunligida maksimal analitik signal beradi. Bu esa kompleks va reagent o'rtasidagi kontraslikni oshiradi ya'ni  $\Delta \lambda = 120$  nm bo'ladi. Bunday holda kobalt (II) ionini bemalol aniqlashimiz mumkin. Bu esa ishlab chiqilgan usulning spektrofotometriyaga nisbatan afzalligini belgilaydi.

Immobillangan MTK va NRT reagentlar bilan temir (III) va kobalt (II) ionini aniqlashning graduirovkali grafigi tanlangan optimal sharoitlarida tuzildi.



a )



b )

**4 - rasm. Buger-Lambert-Ber qonuniga bog'liqlik grafigi: a) immobillangan NRT reagentining Co(II) ion bilan kompleksi; b) immobillangan MTK reagentining Fe(III) ion bilan kompleksi**


Buger-Lambert-Ber qonuni kobalt (II) ionida 6 dan 60,0 mkg/ml konsentratsiyalar oralig'ida 25 ml eritmada amal qiladi. Temir (III) ionida esa 10 dan 100 mkg/ml gacha amal qiladi, bu esa metall ionlarining atrof-muhit obyektlarida aniqlash uchun yetarli kattalik hisoblanadi. Har ikkala usulning korrelyatsion koeffitsienti 1 ga yaqinligi usulning to'g'riligini ifodalaydi.

Olingan kompleks birikmalarning tarkibiy molar nisbatini izomolyar seriyalar usuli yordamida aniqlandi. Immobillangan MTK temir(III) ion bilan va nitrozo R-tuzi kobalt(II) ion bilan hosil qilgan kompleks birikmalarning molar nisbati 1:1 ekanligi aniqlandi.


**Temir (III) va kobalt (II) ionini immobillangan MTK va NRT reagentlari bilan kompleksini spektral tavsiflari**

Ion	Kompleks rangi	pH	MeR	HR	$\Delta\lambda$	Me mkg	Sendel mkg/sm <sup>2</sup>
Sorbentda (Co <sup>2+</sup> )	Qizg'ish	6,5	520	368	120	60	0,003
Eritmada (Co <sup>2+</sup> )	qizil	6,5	419	368	51	60	0,002
Sorbent/Eritma (Fe <sup>3+</sup> )	moviy	2,5-3	615	436	179	50	0,0005899


Dissertatsiyaning PPA-1 tolasiga immobillangan MTK va NRT reagentini temir (III) va kobalt (II) ionini bilan hosil qilgan komplekslarning IQ- spektrlari tahlili bo'limida reagentlarining tanlangan qattiq tashuvchi sorbentlarning va ular o'rtasidagi immobillash jarayonida sodir bo'lgan o'zgarishlarni IQ- spektroskopik usulda o'rganildi. Tadqiqot davomida ularning dastlabgi va keyingi IQ spektrlari olindi va tahlil qilindi.




a )



b )



s )



d )


**5 - rasm. IQ-spektrlar : a ) PPA-1 tolasiga immobillangan metil timol ko'ki ; b ) immobillangan metil timol ko'ki reagentining Fe<sup>3+</sup> ionlari bilan hosil qilgan kompleksi ; s ) PPA-1 tolasiga immobillangan nitrozo R-tuzi ; d ) immobillangan nitrozo R- tuzining Co<sup>2+</sup> ionini bilan hosil qilgan kompleksi**

5 - rasmda (a va b) keltirilgan tahlil natijalaridan ma'lumki immobillanish jarayonida SO<sub>3</sub> guruhining spektrlari 1037sm<sup>-1</sup> dan 1110 va 1161 sm<sup>-1</sup> ga intinsiv siljish kuzatilgan. Bu esa immobillash jarayoni aynan metil timol ko'ki reagentining SO<sub>3</sub> guruhlari hisobiga sodir bo'lganligini anglatadi. Immobillangan metil timol ko'ki va temir (III) ionidan hosil bo'lgan kompleks birikmada PPA-1 tolasimon


sorbentida va immobilangan MTK da mavjud bo‘lgan yangi bog‘ 612  $\text{sm}^{-1}$  sohada (Fe-O) va 760  $\text{sm}^{-1}$  sohada (Fe-N) hosil bo‘lgan. Bu esa immobilangan MTK reagentini temir (III) ioni bilan o‘zaro tasirlashishi funksional aktiv guruhlar hisobiga sodir bo‘lishini anglatadi.

5 - rasmda (s va d) keltirilgan spektrlardan ma’lumki 1-nitrozo-2-naftol-3,6-disulfo ikki natriyli tuzi (NRT) reagentning IQ-spektrida 3129-3531  $\text{sm}^{-1}$  sohalarda –OH guruhiga tegishli bo‘lgan yutilish cho‘qqilari kuzatilgan. 1666-1606  $\text{sm}^{-1}$  da -S=S- bog‘larining tebranish spektrlari kuzatilgan. 1056-1412  $\text{sm}^{-1}$  S-S=O (-O) bog‘lariga tegishli yutilish maksimumlarini kuzatilgan. 507  $\text{sm}^{-1}$  sohada esa O-Na bog‘ining tebranish spektrini ko‘rish mumkin. 1109-833  $\text{sm}^{-1}$  soha oralig‘ida nitrozo R- tuzi reagentning ikkita fenil guruhiga tegishli aromatik halqa yutilishlari kuzatilgan. PPA-1 tolasiga immobilangan 1-nitrozo-2-naftol-3,6-disulfo ikki natriyli tuzi reagenti bilan  $\text{Co}^{2+}$  ioni hosil qilgan kompleksining IQ- spektrida PPA-1 tolasiga immobilangan nitrozo R-tuzi reagenti bilan hosil qilgan mahsuloti IQ-spektridagi asosiy yutilish maksimumlarining saqlanib qolganini ko‘rishimiz mumkin. Faqat -605  $\text{sm}^{-1}$  sohada Co-N va 514  $\text{sm}^{-1}$ sohasida Co-O bog‘lariga tegishli valent tebranishlarini kuzatish mumkin.

PPA-1 tolasiga metil timol ko‘ki va nitrozo R- tuzi organik reagentlarni immobilashdan oldingi va immobilangandan so‘nggi holatlari hamda reagentlarni metall ionlari bilan hosil qilgan komplekslarini rentgen fluorisient tahlili 9825 Spectrum Drive, Austin, TX-78717 (USA) markali rentgeno-fluorescent spektrometrida tahlil qilindi.



a )



b )


**6 - rasm. Rentgeno-fluorescent spektrlari: a ) immobilangan metil timol ko‘ki reagentning  $\text{Fe}^{3+}$  ioni bilan hosil qilgan kompleks; b ) immobilangan nitrozo R-tuzining kobalt(II) ioni bilan hosil qilgan kompleks.**

Tahlil natijalariga ko‘ra immobilash jarayoniga qatnashuvchi sulfo guruh mavjudligi sababli, aynan oltingugurt uchun yuqori intensiv sohani, shuningdek metall bilan reagent yangi kompleks birikma hosil bo‘lganini temirga xos yuqori intensiv sohaning ko‘rinishi bilan izohlash mumkin.

PPA-1 tolasini HCl bilan modifikatsiyalangan shakli tekshirilganda Cl elementining miqdori NRT organik reagentning immobilanishidan so‘ng kamayishi kuzatildi.

Yuqoridagi tahlil natijalariga ko‘ra dastlabgi immobilangan tolani xlorli shaklga o‘tkazilgani tufayli xlor ioniga tegishli sohada yuqori intensivlikni ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek reagent tarkibidagi oltingugurt va reagent bilan yangi kompleks hosil qilgan kobalt (II) ionlariga xos yuqori intensiv sohani ko‘rishimiz mumkin. Bu natija massa jihatdan 1,58 ni qayd qildi.

Immobilangan PPA-1 tolasining temir (III) va kobalt (II) ionlari bilan hosil qilgan kompleks birikmasining mavjudligini SEM detektori tahlilining difroktogrammalaridagi temir va kobalt ioniga xos signal hosil bo'lganligi bilan izohlashimiz mumkin.



**7 - rasm. SEM tasvirlari : a) immobilangan MTK bilan temir (III) ionlari bilan hosil qilgan kompleks; b) immobilangan NRT bilan kobalt (II) ionlari bilan hosil qilgan kompleks**

Xuddi shunday analogik o'xshashlik kobalt kompleksida ham kuzatildi, ya'ni dastlabgi tola tarkibida C, N, O, S elementlari, uni xlorli shaklga o'tkazilganligi uchun Cl ionlari miqdori va kompleks birikma hosil bo'lganligi uchun  $\text{Co}^{2+}$  ionlarining miqdori 0,92 ni tashkil etgani aniqlandi. Tahlil natijalariga ko'ra PPA-1 tolasini tarkibi C, N, O, S elementlaridan tashkil topgan, kislota bilan modifikatsiyalanganidan keyin tarkibida Cl<sup>-</sup> ionlari miqdori ham aniqlandi. Organik reagent bilan  $\text{Fe}^{3+}$  ionlari kompleks birikma hosil qilganidan so'ng esa na'muna tarkibidagi temir massa jihatdan 0,3 ni tashkil qildi.

Immobilangan organik reagentlarni va ular hosil qilgan komplekslarni sorbsiya va desorbsiya jarayoni o'rganildi. Tahlil natijalariga ko'ra sorbsiya samaradorligi 0,95 dan yuqori ekanligi aniqlandi. Demak ishlab chiqilgan sorbsion-spektroskopik usul yordamida nafaqat og'ir va zaharli metallarni aniqlash balki ajratish imkoni ham mavjud. Organik reagentlar va ular hosil qilgan komplekslarni desorbsiyaga uchratish uchun 2M nitrat kislota tanlab olindi hamda desorbsiya jarayonini vaqt bilan bog'liq o'rganildi. Tahlil natijalariga ko'ra temir ionlari hosil qilgan kompleksning to'liq desorbsiyaga uchrashi uchun 6 soat, kobalt ionlari hosil qilgan kompleksning desorbsiyaga uchrashi uchun 2 soat vaqt ketadi.

Dissertatsiyaning «**Oqava suvlarida temir (III) va kobalt (II) ionlarini sorbsion-spektroskopik usul yordamida aniqlash, ajratish va monitoring qilish (Qo'ng'iroq tumani va Navoiy viloyati misolida)**» nomli to'rtinchi bobida dastlab temir va kobalt ionlarini o'simliklarga ta'siri o'rganib chiqildi. Tahlil uchun jo'xori va bug'doy o'simliklari tanlab olindi va Navoiy azot chiqindi suvi va kobaltga boy suvlar bilan sug'orildi. Tahlil natijalariga ko'ra har ikkala suvning miqdori oshishi bilan o'simliklarning ildizi, poyasi, to'pgulida rivojlanish sekinlashgani kuzatildi.

Temir (III) va kobalt (II) ionlarini mos ravishda immobilangan MTK va NRT reagentlari yordamida begona ionlar ishtirokida aniqlash va ajratish natijalari tahlil va suniy ikkilamchi va uchlamchi va murakkab aralashmalardan «kiritildi-topildi» usulida tahlil qilindi.

Tahlil natijalariga ko'ra temir (III) ionini binar, uchlamchi va murakkab

aralashmalarda ishlab chiqilgan sorbsion spektroskopik usul yordamida aniqlanganda nisbiy standart chetlanish (Sr) 0,014 dan oshmaydi, bu usulning qayta takrorlanuvchanligi va to'g'riligi haqida dalolat beradi va sorbsiya samaradorligi 0,95 dan yuqori esa temir va kobalt ionlarini ajratish imkonini beradi. Xulosa qilishimiz mumkinki, o'rganilayotgan ionlarni tahlil qilishda ishlab chiqilgan usulimiz sezgirligi va selektivligini oshiradigan qo'shimcha amallarda foydalanmasa ham bo'ladi ( aynan shu miqdordagi ionlar uchun). Barcha natijalarda nisbiy standart chetlanish 0,1 dan oshmaydi, bu esa aniqlanayotgan ionlarni aniqlashda va ajratishda usulning to'g'riligi va qayta takrorlanuvchanligini ifodalaydi.

Sanoatlashgan zonalarning tuproqlaridagi kobalt ionlarini sorbsion-spektroskopik usulda aniqlab tuproq tarkibida masofaviy tarqalishi tahlil qilindi. Temir (III) va kobalt (II) ionlarni atrof - muhit obyektlari «Ohangaron sement» zavodi hududidagi tuproqlar, «Navoi azot» zavodi chiqindi suvlari va Zarafshon daryosining suvlari hamda Oltin ko'l kanali suvlari temir (III) va kobalt (II) ionlarini ishlab chiqilgan usul yordamida aniqlandi va ajratildi, metall ionlarini tarqalishini o'rganildi, yillik va mavsumiy monitoringi o'tkazildi va baholandi.

Tabiiy obyektlar tarkibida temir va kobalt ionlarni sorbsion - spektroskopik usulda aniqlandi va ajratildi.

### 3 - jadval

#### Tabiiy obyektlardagi temir va kobalt ionlarini sorbsion-spektroskopik aniqlash va ajratish natijalari

Tabiiy obyekt	Topilgan Fe(III) mkg/sm <sup>3</sup> ( $\bar{x} \pm \Delta X$ )	S	Sr	R	Topilgan Co(II), mkg/sm <sup>3</sup> ( $\bar{x} \pm \Delta X$ )	S	Sr	R
Navoiy azot chiqindi suvi	7,9174±0,168	0,136	0,017	0,97	0,097±0,024	0,02	0,2	0,97
Oltin ko'l kanali	4,9726±0,0052	0,0042	0,00084	0,99	0,06±0,0015	0,0012	0,02	0,99
Zarafshon daryosi	0,094±0,011	0,0092	0,098	0,99	0,102±0,003	0,0024	0,0235	0,98

Tahlil natijalaridan ma'lumki tabiiy obyektlardagi temir (III) va kobalt (II) ionlarining miqdorini aniqlashda nisbiy standartchetlanish qiymati 0,126 dan oshmagan va sorbsiya samaradorligi 0,97dan yuqoriligi ishlab chiqilgan usulning sezgirlik darajasi yuqori va metall ionlarini ajratish imkoniyati yaxshi ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Ohangaron sement zavodi atrofidagi turli masofadagi hududlar tuprog'i tarkibidagi Co(II) ionlarining miqdori (mkg/g) sorbsion-spektroskopik usulda aniqlandi: 1- masofa 1 km (16,08 mkg/g); 2- masofa 3 km (15,3 mkg/g); 3 – masofa 5 km (12,1 mkg/g); 4 – masofa 10 km (5,5 km).

Ko'rinib turibdiki, Co(II) ionlarining tuproqdagi miqdori zavoddan uzoqlashgan sari kamayib bormoqda. Bu, ehtimol, zavoddan chiqadigan ifloslantiruvchi moddalar havoga yoki suvga mikroskopik miqdorlarda tushib, tuproq orqali tarqalishini anglatadi.


Ilmiy tadqiqot ishida Oltinko‘l kanalining kirish qismidagi kuzatuv burg‘ularidan olingan namunalarda tarkibidagi temir ionlarining miqdori yillar davomida o‘zgarishi tahlil qilindi. Suvlarning kimyoviy tarkibini tahlil qilish va umumlashtirish natijasida mavsumiy va yillar davomida temir ionlarining miqdori o‘zgarishi baholandi. Mavsumiy o‘zgarish: bahor va yoz oylarida temir ionlari konsentratsiyasida ko‘proq o‘zgarishlar kuzatiladi, kuz va qish oylari esa nisbatan barqaror bo‘ladi.

Oltinko‘l kanalidagi temir ionlari konsentratsiyasi mavsumiy o‘zgarishlarni ko‘rsatadi, eng yuqori darajalar bahorda, eng pastlari esa qishda kuzatiladi.



**8 - rasm. Oltin ko‘l kanalidagi temir(III) ionlarining mavsumiy va yillik o‘zgarish dinamikasi**

Ushbu mavsumiy o‘zgarishlar turli ekologik omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, masalan, qishloq xo‘jaligi amaliyotlari (o‘g‘itlardan foydalanish, sug‘orish), yog‘ingarchilik rejimi va metallarning migratsiyasi. 2023 yilga kelib qish oylarida temir darajasining oshishi muhit sharoitlaridagi o‘zgarishlarni, masalan, sanoat chiqindilari yoki suv kimyosidagi o‘zgarishlarni ko‘rsatishi mumkin, bu esa kanaldagi ion konsentratsiyasiga ta‘sir ko‘rsatmoqda.




**9 - rasm. Qo‘ng‘irot soda zavodi hududi va uning atrofidagi turli masofada joylashgan suv havzalari tarkibidagi Co(II) ionlarining miqdori baholash (mkg/dm<sup>3</sup>)**

Sorbsion-spektroskopik usul yordamida kobalt (II) ionlarini miqdorini o‘rganish maqsadida 2024 yil bahor mavsumida «Qo‘ng‘irot soda zavodi» MChJ QK hududida va uning atrofida joylashgan hududlarda suv namunalarini olish va tahlil qilish amalga oshirildi. Tahlil natijalariga ko‘ra, zavod hududidagi chiqindilar suvlarda kobalt (II) ionlarining mikro miqdori 38,125 mkg/dm<sup>3</sup> ni tashkil etdi. Bundan tashqari, zavod hududidan turli masofalarda joylashgan suv havzalaridagi kobalt ionlarining konsentratsiyasi quyidagi ko‘rsatkichlarga ega bo‘ldi: 1 km masofada – 16,08 mkg/dm<sup>3</sup>, 2 km masofada – 12,4 mkg/dm<sup>3</sup>, 3 km


masofada – 8 mkg/dm<sup>3</sup>, 5 km masofada – 6,03 mkg/dm<sup>3</sup>, 8 km masofada – 4 mkg/dm<sup>3</sup>, 10 km masofada esa – 2 mkg/dm<sup>3</sup>. Bu natijalar, zavod hududidan uzoqlashgan sari kobalt ionlarining konsentratsiyasining sezilarli darajada pasayishini ko‘rsatadi.

Oltin ko‘l kanalining kirish va chiqish qismidan olingan namunalardan foydalangan holda 2023 yilda turli mavsumlarda temir va kobalt ionlarini metrologik miqdori sorbsion-spektroskopik usulda aniqlanib monitoringi o‘tkazildi va baholandi. Tahlil natijalariga ko‘ra Oltin ko‘l kanalida temir (III) ionlarining miqdori 2023 yilda bahor mavsumida eng yuqori ko‘rsatgichni namoyon etgan. Bu jarayonni bahor mavsumida sodir bo‘ladigan namgarchilik va metallarning migratsiyasi bilan bog‘lashimiz mumkin.



**10 - rasm. Oltin ko‘l kanalining kirish va chiqish qismida olingan suv namunalaridagi a) temir (III) va b) kobalt (II) ionlarining 2023 yilgi mavsumiy o‘zgarishlari**

Zarafshon daryosidagi temir (III) va kobalt (II) ionlarining metrologik miqdori sorbsion-spektroskopik usulda tahlil qilinganda temir miqdori Qish faslida eng past 0,043mg/dm<sup>3</sup> bo‘lsa, bu qiymat xavfsiz hududda ekanini ko‘rsatadi. Bahor faslida temir miqdori 0,115mg/dm<sup>3</sup> ga ko‘tarilib, REM ga yaqinlashadi, lekin hali xavfsiz chegarada. Yoz va kuz fasllarida temir miqdori 0,067mg/dm<sup>3</sup> va 0,05mg/dm<sup>3</sup> ga teng bo‘lib, ularning ikkalasi ham REM dan past va xavfsiz hisoblanadi (11-rasm).



**11 - rasm. Sorbsion-spektroskopik usulda Zarafshon daryosidagi temir (III) va kobalt (II) ionlari miqdorining mavsumiy o‘zgarish dinamikasi (2024 y)**

Qish faslida kobalt miqdori 0,06mg/dm<sup>3</sup> Bahorda 0,048mg/dm<sup>3</sup>, yozda esa 0,032mg/dm<sup>3</sup> ga tushadi. Bularning barchasi REM qiymatidan past va xavfsiz

hisoblanadi. Kuz faslida kobalt miqdori  $0,0689\text{mg/dm}^3$  ga ko‘tariladi, bu ham xavfsiz chegarada qoladi, ammo yanada yuqori bo‘lsa, daryo ekosistemasiga zarar yetkazishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, temir va kobalt ionlarining miqdori mavsumiy ravishda o‘zgarib turadi. Qish faslida bu ionlar minimal miqdorda, bahorda esa maksimal miqdorga yaqinlashadi. REM qiymatidan oshmasdan, Zarafshon daryosidagi temir va kobalt ionlari xavfsiz hududda qolgan, bu esa ekologik holatni muvozanatli va xavfsiz tutishiga yordam beradi. Umumiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, daryo suvining temir va kobalt miqdori sezilarli o‘zgarishlarga uchramayapti va ularning miqdori ekologik xavf yaratmaydi.

#### 4 - jadval

### Ishlab chiqilgan sorbsion spektroskopik usul yordamida tabiiy obyektlardan kobalt (II) ionini aniqlash va ajratib olish tahlil natijalarini baholash

Tekshirish uchun namuna	ISP-MS		Ishlab chiqilgan usul		$t_{\text{jadval}}$ 2,85	$F_{\text{jadval}}$ 4,47	So‘nggi konsentrat-siya Co(II) ioni	Sorbsiya samaradorligi
	topildi $\bar{x}$ $\text{mg/dm}^3$	$S_r$	topildi $\bar{x}$ $\text{mg/dm}^3$	$S_r$	$t_{\text{tajriba}}$	$F_{\text{tajriba}}$	topildi $\bar{x}$ , $\text{mg/dm}^3$	R%
Navoiy azot chiqindi suvi	0,117	0,02	0,115	0,015	2,03	4,09	0,01	91
Zarafshon daryosi suvi	0,06	0,01	0,059	0,03	1,97	3,58	0,01	93
Oltin ko‘l kanali suvi	0,17	0,025	0,16	0,012	1,95	4,17	0,015	91

Tahlil natijalaridan ma‘lumki ishlab chiqilgan sorbsion-spektroskopik usul yordamida nafaqat kobalt (II) ionlari miqdori yuqori sezgirlikda aniqlanadi va kobalt ionlarining sorbsion samaradorligi 91% dan yuqoriligi sababli ushbu metall ionlarini oqava suvlardan ajratib olish imkonini ham beradi.

#### 5 - jadval

### Ishlab chiqilgan sorbsion spektroskopik usul yordamida tabiiy obyektlardan temir (III) ionini aniqlash va ajratib olish tahlil natijalarini baholash

Tekshirish uchun namuna	ISP-MS		Ishlab chiqilgan usul		$t_{\text{jadval}}$ 2,85	$F_{\text{jadval}}$ 4,47	So‘ngi konsentrat-siya Fe(III) ioni	Sorbsiya samaradorligi
	topildi $\bar{x}$ $\text{mg/dm}^3$	$S_r$	topildi $\bar{x}$ $\text{mg/dm}^3$	$S_r$	$t_{\text{tajriba}}$	$F_{\text{tajriba}}$	topildi $\bar{x}$ $\text{mg/dm}^3$	R%
Navoiy azot chiqindi suvi	1448,568	0,25	1450	0,2	1,90	3,67	200	96
Zarafshon daryosi suvi	0,1	0,05	0,115	0,03	2,06	4,06	0,0115	98
Oltin ko‘l kanali suvi	4,5	0,1	4,6	0,125	1,78	3,53	0,025	99

Tahlil natijalaridan ma'lumki, ishlab chiqilgan sorbsion-spektroskopik usul yetarlicha raqobatbardosh bo'lib nisbiy standart chetlanish qiymati 0,33 dan pastligi va Student va Fisher mezonlari qiymati jadvalda keltirilgan qiymatlardan past ekanligi aniqlandi. Bu esa usulning takrorlanuvchanligi va sezgirligini ifodalaydi. Ishlab chiqilgan sorbsion spektroskopik usullar oqava suvlardan temir (III) va kobalt (II) ionlari ajratish imkonini bergan.

Ishlab chiqilgan temir va kobalt ionlarini sorbsion-spektroskopik aniqlash va ajratish jarayonlarining iqtisodiy ko'rsatgichlari hisoblandi va iqtisodiy samaradorligi aniqlandi.

## XULOSA

1. Temir (III) va kobalt (II) ionlarini aniqlash va ajratish uchun PPA-1 sorbentiga immobillangan metil timol ko'ki va nitrozo R- tuzi reagentlari tanlandi va PPA-1 tolasini organik reagentlarga immobillash uchun optimal sharoitlar aniqlandi.

2. Temir (III) va kobalt (II) ionlarining immobillangan reagentlar yordamida kompleks hosil bo'lishining optimal sharoitlari aniqlandi, kompleks hosil bo'lish mexanizmlari va tarkibi spektrofotometrik, IQ-spektroskopik, rentgen-fluorescent, skanerlovchi elektron mikroskopiya usullari bilan tasdiqlandi.

3. Temir (III) va kobalt (II) ionlarini aniqlash va ajratish uchun sorbsion-spektroskopik usul ishlab chiqildi va DavST usullari solishtirildi. Xalaqit beruvchining kamligi, ekspressligi, nisbiy standart chetlanishning 0,25 dan oshmaganligi, student va Fisher mezonlari jadval qiymatidan pastligi, sorbentlarni qayta analizda ishlatish imkoniyati bilan boshqa usullardan afzalliklarga egaligi isbotlandi hamda temir va kobalt ionlarini aniqlash va ajratishga tavsiya etildi.

4. Temir (III) va kobalt (II) ionlarini aniqlash va ajratish uchun ishlab chiqilgan sorbsion-spektroskopik usul tuproq, tabiiy va oqava suvlar tarkibidan aniqlash va ajratishda sinab ko'rildi va ekologik baho berildi.

5. Temir (III) va kobalt (II) ionlarini aniqlash va ajratish uchun ishlab chiqilgan sorbsion-spektroskopik usul yordamida Oltin ko'l kanali, «Navoiyazot» AJ chiqindi suvlari, Zarafshon daryosidagi temir va kobalt ionlarini miqdori mavsumiy, masofaviy, yillik ko'rsatgichlarda monitoring qilindi.

6. «Navoiyazot» AJ markaziy laboratoriyasida sinovdan o'tkazilib, amaliyotga joriy qilindi. Ishlab chiqilgan sorbsion-spektroskopik usul joriy etish samaradorligi tegishli me'yoriy texnik-iqtisodiy va ekologik axborot manbalarida ko'rsatilgan mezonlarga muvofiq amalga oshirildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.16/30.12.2019.К/Т.87.01 ПО  
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНИ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ  
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ ИНСТИТУТ ХИМИЧЕСКОЙ  
ТЕХНОЛОГИИ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ХИМИЧЕСКОЙ ТЕХНОЛОГИИ**

**ДАВРОНОВА НОРНИСО ФАХРИДДИН ҚИЗИ**

**РАЗРАБОТКА СОРБЦИОННО-СПЕКТРОСКОПИЧЕСКИХ МЕТОДОВ  
ОПРЕДЕЛЕНИЯ И РАЗДЕЛЕНИЯ ИОНОВ ЖЕЛЕЗА И КОБАЛЬТА  
АЗОТ- И КИСЛОРОД СОДЕРЖАЩИМИ ИММОБИЛИЗОВАННЫМИ  
ОРГАНИЧЕСКИМИ РЕАГЕНТАМИ В ОБЪЕКТАХ ОКРУЖАЮЩЕЙ  
СРЕДЫ**

**11.00.05- Охрана окружающей среды и рациональное использование природных  
ресурсов**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО  
ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2025.2.PhD/K906.

Диссертация выполнена в Ташкентском химико-технологическом институте.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице по адресу [www.tktiti.uz](http://www.tktiti.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу [www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)

**Научный руководитель:**

**Сманова Зулайхо Асаналиевна**  
доктор химических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Мухамедгалиев Бахтиер Абдукадирович**  
доктор химических наук, профессор

**Алиева Мукаддас Туйчиевна**  
доктор химических наук, доцент

**Ведущая организация:**

**Институт общей и неорганической химии**


Защита диссертации состоится «27 августа» 2025 г. в «09:00» часов на заседании Ученого совета DSc.16/30.12.2019.K/T.87.01 при Ташкентском научно-исследовательском институте химической технологии по адресу: 111116, Ташкентская область, Ташкентский р.-н, ул. Шурабазар, тел: (+99895) 281-67-83, e-mail: [ooo\\_tniixt@mail.ru](mailto:ooo_tniixt@mail.ru) [TKTITI@exat.uz](mailto:TKTITI@exat.uz)

Диссертация зарегистрирована в Информационно-ресурсном центре Ташкентского научно-исследовательского института химической технологии за № 2025/24, с которой можно ознакомиться в ИПЦ (111116, Ташкентская область, Ташкентский р.-н, п.о.Шурабазар, тел: (+99895) 281-67-83, E-mail: [ooo\\_tniixt@mail.ru](mailto:ooo_tniixt@mail.ru) [TKTITI@exat.uz](mailto:TKTITI@exat.uz))

Автореферат диссертации разослан «09» августа 2025 года.

(протокол рассылки № 2025/24 от «09» августа 2025 г.).





**А.Т. Джалилов**  
Председатель научного совета  
по присуждению учёных степеней,  
д.х.н., проф., академик



**Ш.Н.Киёмов**  
Ученый секретарь научного совета  
по присуждению учёных степеней,  
д.т.н., с.н.с.



**Х.С. Бекназаров**  
Председатель научного семинара  
при научном совете по присуждению  
учёных степеней, д.т.н., проф.

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В последние годы в мире наблюдается интенсивное развитие всех отраслей промышленности и широкое внедрение современных техногенных процессов в практику, что приводит к усилению негативного воздействия на окружающую среду через антропогенные факторы. В связи с этим в рамках экологического анализа уделяется особое внимание разработке современных, высокочувствительных, воспроизводимых методов, которые позволяют не только выявлять ионы железа и кобальта, но и селективно извлекать их из объектов окружающей среды.

В мире ведутся научные исследования по созданию ряда физических и физико-химических методов, позволяющих анализировать ультрамикрочастицы для выявления и извлечения тяжёлых и токсичных металлов. В этом направлении особое значение приобретает углублённое изучение механизмов повышения чувствительности и селективности современных методов, обеспечивающих одновременное определение и извлечение тяжёлых и токсичных металлов при концентрациях ниже предельно допустимых норм, в частности, с использованием метода иммобилизации органических реагентов на волокнистых носителях.

В Республике наряду с развитием сорбционно-спектроскопических методов определения тяжёлых и токсичных металлов достигнуты конкретные научные и практические результаты по совершенствованию и упрощению мониторинга в условиях роста загрязнения окружающей среды. В Стратегии развития Нового Узбекистана определены задачи «широкого внедрения инноваций в экономику, развития сотрудничества между промышленными предприятиями и научными учреждениями»<sup>2</sup>. В этом направлении особое значение имеет использование органических реагентов, иммобилизованных на волокнистые носители, полученные на основе местного сырья, при мониторинге окружающей среды, что способствует дальнейшему совершенствованию системного контроля за качеством веществ и уровнем их чистоты.

